

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv raisining korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha murojaati

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/message/obrashchenie-predsedatelya-pravleniya-ao-uzkimyosanoat-po-voprosam-borby-s-korrupciy>

Hurmatli hamkasblar, jamoatchilik va hamkorlar!

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qat'iy va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Korrupsiyani islohotlarga qarshi eng katta to'siq sifatida baholab, davlatimiz rahbari bu illatga qarshi keng qamrovli, xalqchil va ochiq mexanizmlarni joriy etmoqda. Ayni paytda, mazkur siyosat doirasida "O'zkimyosanoat" AJ ham o'zining barcha tarmoq va korxonalarida korrupsiyaga qarshi ta'sirchan tizimlarni joriy etib, preventiv choralar, shaffoflik va hisobdorlik prinsiplariga amal qilmoqda.

Asosiy faoliyat yo'nalishimiz - mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va ularni ichki hamda tashqi bozorlarga samarali yetkazib berishdan iborat. Bunda, korrupsiyadan xoli, halol va shaffof muhitni ta'minlash - nafaqat ichki tizimimizning barqarorligi, balki xalqaro sheriklarimiz va investorlar ishonchining asosidir.

"O'zkimyosanoat" AJ nafaqat milliy bozorda, balki xalqaro maydonda ham faoliyat yuritadi. Shu bois xorijiy investorlar bilan ishonchli va ochiq munosabatlarni ta'minlash, ularning huquqiy kafolatlarini himoya qilish va shaffof biznes muhitini shakllantirishni asosiy vazifa deb bilamiz.

Mamlakatimizda keyingi yetti yilda 120 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb etilgani, iqtisodiyotimizning ikki barobar o'sgani - shaffoflik va qonun ustuvorligiga asoslangan siyosatning natijasidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida belgilab bergan 55 ta aniq tashabbus, jumladan:

- komplayens nazoratini kuchaytirish,
 - davlat xaridlarida elektron platformalar joriy qilish,
 - maishiy korrupsiyaning oldini olish,
 - davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiyalash,
 - fuqarolik jamiyatining ishtiroki, kabi ustuvor vazifalar faoliyatimizning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi.
- Joriy yilda "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizimida shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaviy omillarning oldini olish va davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida zamonaviy Situatsion markaz faoliyatini yo'lga qo'yish ishlarini olib bormoqda.

Situatsion markaz bir qator afzaliklarga va quyidagi imkoniyatlarga ega:

1. Davlat xaridlari jarayonlarini doimiy monitoring qilish
 - xaridlar rejasi, e'lonlar, tender natijalari va shartnomalar ochiq tahlil etiladi;
 - barcha bosqichlarda shaffoflik va tenglik tamoyillari ta'minlanadi.
2. Qaror qabul qilish jarayonida ma'lumotlarga asoslangan nazorat
 - xarid obyektlari bo'yicha statistik va dinamik tahlillar avtomatlashtiriladi;
 - narxlar tendensiyasi, talab va taklif monitoringi yo'lga qo'yiladi.
3. Korrupsiya xavflarini kamaytirish
 - har bir davlat xaridi bo'yicha korrupsion xavf indikatorlari avtomatik aniqlanadi;
 - shubhali kelishuvlar va kelishilgan tenderlar barvaqt aniqlanib, tegishli choralar ko'riladi.
4. Pul aylanmasini onlayn monitoring qilish
 - tender g'oliblariga to'langan mablag'lar real vaqtda nazorat qilinadi;
 - manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli bo'lgan holatlar o'z vaqtida aniqlanadi.

Hurmatli jamoa a'zolari!

Korrupsiya - nafaqat qonunbuzarlik, balki taraqqiyotga to'siq, jamiyat adolatiga xiyonatdir. Biz barchamiz - rahbarlar, mutaxassislar, ishchi-xodimlar - bu illatga qarshi bir tanu bir jon bo'lib kurashmasak, yuksak natijalarga erisha olmaymiz.

"O'zkiyosanoat" AJ korrupsiyaga qarshi kurashishda o'z zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarishda davom etadi. Har bir faoliyatda halollik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillari ustuvor bo'ladi.

Bugungi kundagi yutuqlarimizni saqlab qolish va yanada yuksaltirish uchun barchamizni o'zaro hamkorlik, mas'uliyat va vijdonli mehnatga chorlayman.

Korrupsiyasiz jamiyat - umummilliy vazifa!

Xurmat bilan,
"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruv raisi
Temirov Odil Shukurovich